

**MAKTAB O'QUVCHILARINI TO'G'RI KASB TANLASHGA
YO'NALTIRISH UCHUN AMALIYOTCHI PSIXOLOGLAR, SINFLAR
RAHBARLAR HAMDA OTA-ONALAR UCHUN TAVSIYALAR**

Ro'ziyeva Zulxummor Ro'zibayevna

*Xorazm viloyati Xiva shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli
14-son umumta'lim maktabing kasb- hunarga yo'naltiruvchi psixologi*

Madrimova Dilfuza Ismoilovna

*Xorazm viloyati Xiva shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli
11-son umumta'lim maktabing kasb- hunarga yo'naltiruvchi psixologi*

Anotatsiya: O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bu ularni qiziqishlari, layoqatlari hamda shakillangan qobiliyatlariga mos holda kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashishlaridan iboratdir. Bu jarayonda o'quvchi yoshlar xalq xo'jaligi, sanoat, transport, maishiy xizmat va boshqa sohalarga tegishli kasblar va ularga ehtiyojlar, shuningdek, mehnat bozorining kadrlarga bo'lgan talablari, kadrlarni shaxsga qo'ygan talablari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Kasb-hunarga yo'naltirish ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishining uzviy bir qismi sanaladi.

To'g'ri tanlangan kasb kamolatga eltadi. Umumiy o'rta ta'lim muassasasi bitiruvchilariga "Kasb-hunar" tushunchasini izohlab berish, kasb – bu ish faoliyatining biror turi ekanligi, u ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etishini tushuntirish, kasb-hunar egallashda aql, orzu, mehnat, iroda, sabr- toqat, hamjihatlik kabi fazilatlar zarur ekanligini uqtirish, kasb-hunarga oid bilimlarini oshirish borasida amaliyotchi psixologlar hamda sinf rahbarlar faoliyatlari davomida quyidagi tavsiyalarni ota-onalar hamda o'quvchilar ongiga ongli ravishda singdirib borishlari hozirgi zamon davr talabi:

Har qanday kishi o'z hayotini yaxshilashi uchun, birinchidan, buni xohlashi, ikkinchidan, bunga o'zi tayyor bo'lishi va yana, bunga erishishi uchun harakat qilishi kerak.

O'spirinlik yoshi – o'zligini anglash va dunyoqarashning shakllanish davri. O'spirinni "Men kimman?", "Qanday odamman?", "Men nimaga intilyapman?" degan savollar o'ylantirishi tabiiy hol.

- 13-14 yoshda: Kelajakda egallaydigan kasblar haqida chuqurroq o'ylab, qiziqqan yo'nalish bo'yicha fanlarni chuqurroq o'rganishi lozim
- 15-16 yoshda: Qaysi kasbiy yo'nalishdan borishni tanlash, kasbga taalluqli qo'shimcha ma'lumotlarni batafsil o'rganish va qaror qilishi juda muhim
- 17-18 yoshda: Egallaydigan kasb haqida to'liq tushunchaga ega bo'lib, ishlab chiqarish yoki tashkilotda amaliyot o'tashni boshlashi kerak

YUQORI MALAKALI KASB EGASI BO'LISH UCHUN NIMALAR QILISH KERAK?

1. Qiziqishdan so'nmang

- O'zingiz qiziqqan sohani chuqurroq o'rganing, hattoki bu atrofdagilarga qanchalik g'alati va tushunarsiz ko'rinsa ham
- Qiziqishlaringiz orasidan hozir va kelajakda o'z salohiyatingizni eng ko'p rivojlantira oladiganini tanlashga harakat qiling
- Qiziqishlaringiz va tanlayotgan yo'nalishingiz kelajakda qanchalik talabgir bo'lishi haqida fikrlang


2. Maslahat olishdan uyalmang

- Tanlagan yo'nalishingiz bo'yicha ota-onangizdan yoki muvaffaqiyatga erishgan insonlardan maslahat oling
- O'qituvchi va maktabning psixologi bilan kasb tanlash bo'yicha suhbatlashing
- Tengdoshlaringizning qiziqishlari bilan tanishing, va ular bilan ham muhokama qiling

3. Asosiysi malaka egallang


- O'zingiz ustingizda doimiy ishlash va izlanish ko'nikmasini hosil qiling!
-

MUVAFFAQIYATLI KELAJAK UCHUN 6 TA TAVSIYA




Fikrlash

O'qigan, ko'rgan, eshitgan narsalaringiz haqida fikrlang, tanqidiy yondashing




Ro'yxat qilish

Fikrlaringizdan hosil bo'lgan qiziqishlaringiz ro'yxatini tuzing



Saralash

Qiziqishlaringizni imkoniyatlaringiz bo'yicha saralang



Maqsad qo'yish

Eng muhim hisoblagan yo'nalishingizga erishishda istagan maqsadingizni qo'ying



Muddat belgilash

Maqsadga erishish uchun bosqichlar va muddatlarni o'zingiz uchun belgilang



Ko'p hato qilish

Xato qilishdan va avval belgilaganlaringizni o'zgartirishdan qo'rqmang

Zamona zayli shiddat bilan o'zgarayotgan davrda yashayapmiz. Bugun bizni eng so'nggi texnologiya ham hayratga solishi qiyin. Nima uchun bunday? Sababi bu

olamda har lahzada o'zgarish bo'lyapti, hayron qolishga ulgurolmayapmiz. Barcha sohalar avtomatlashtirilsa, biz insonlar nima bilan shug'ullanamiz? Fikrni bir joyga jamlab, o'ylash lozim: qaysi kasbni boshidan tutsam, ertaga u jamiyatga foyda olib keladi? Bugun tanlagan mutaxassisligim bilan kelajakda ishsiz qolmaymanmi? Bu borada yoshlarni kasbga yo'naltirish ishlarining ahamiyati bo'lak. Xo'sh, O'zbekistonda qaysi soha jadallik bilan rivojlanyapti, yaqin kelajakda qanday kadrlarga ehtiyoj ortadi?

DOLZARB KASBLAR



• Web dasturchi

- Mobil ilova yaratuvchi
- O'yin ishlab chiqaruvchi
- 2D/3D design
- Frilanserlik
- Web dizayner va boshqalar



• IT va boshqa sohada xizmat ko'rsatish

- Valyuta, turli aksiya birjalari brokeri va tahlilchisi
- Onlayn maslaxatchi
- SMM va SEO xizmati
- Onlayn dars va malaka oshirish



• Tarjimonlik

- Turistik firma xizmatlari
- Oshpazlik (milliy va antiqa taomlar)
- Gidlik xizmatlari
- Menejer va boshqalar



• Arxitektor

- Loyihalashtirish muhandisi

- Landshaft dizayneri
- Elektromontaj ustasi
- Santexnika ustasi
- Payvandlovchi va boshqalar



- Stilist

- Dizayner
- Sartarosh
- Kosmetolog
- Tish shifokori
- Kurerlik xizmatlarini va boshqalar




- Maishiy texnika ustasi

- Avtomobil ustasi
- Elektrik
- Santexnik
- Landshaft dizayneri
- Reklama dizayneri



- Duradgorlik

- Zargarlik
- Naqqoshlik
- Kulolchilik
- Kosibchilik



- Tikuvchilik

- To'quvchilik
- Dizaynerlik
- Zardo'slik
- Kashtachilik



• Metalga ishlov berish

- Pichoqchilik
- Elektr payvandlovchi
- Gaz payvandlovchi
- Metall konstruktsiyalarni yig'ish

MUHIM KO'NIKMALAR

1. ATROFDAGILAR BILAN MULOQOT QILISH
2. JAMOADA ISHLASH
3. TAQDIMOT QILISH
4. MA'LUMOT QIDIRISH VA TAHLIL QILISH

MUHIM BILIMLAR

1. XORIJIY TILLARINI MUKAMMAL O'RGANISH (Ingliz, Rus, Koreys va boshqalar)
2. ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI O'ZLASHTIRISH (kompyuter, smartfon va boshqalar)
3. KOMPYUTERDAN FOYDALANISHNI BILISH VA ZAMONAVIY KOMPYUTER DASTURLARINI O'ZLASHTIRISH

Kasb turlari

Kasb turlari shartli ravishda quyidagicha guruhlarga bo'linadi: "Odam-odam", "Odam-texnika", "Odam-badiiy obraz", "Odam-belgilar tizimi", "Odam-tabiat".

O'smirlar yuqori malakali kasb egasi bo'lishlari uchun quyidagilarni bilishlari kerak:

Kasb turi	Odam-odam
Mehnat predmeti	Odamlar, guruhlar, jamoalar, ijtimoiy jarayonlar
Mazkur kasb uchun muhim bo'lgan sifatlar	Muloqatga kirishuvchanlik, odamlar bilan aloqa o'rnata bilish, boshqa odamlar bilan qiziqish va ularning manfaatlarini tushunish, odamlarning hamkorlikdagi hatti-harakatlarini tashkil qila bilish va ularga yordam berishga intilish
Hunar-texnik ma'lumot talab qiluvchi kasblar	Sotuvchi, sartorosh, ofitsiant, yo'lovchi tashuvchi vagonlar nazoratchisi, konduktor

O'rta maxsus ta'lim talab qiladigan kasblar	Hamshira, bolalar bog'chasi tarbiyachisi, kasb ta'limi ustasi, fel'lsher
Oliy ma'lumot talab qiluvchi kasblar	O'qituvchi, shifokor, journalist, huquqshunos, kutubxonachi

Kasb turlari	Odam-texnika
Mehnat predmeti	Texnik tizimlar: energiya, sun'iy va tabiiy materiallar
Mazkur kasb uchun muhim bo'lgan ayrim sifatlar	Yuqori rivojlangan texnik tafakkur, makon-obraz tasavvurlari, kordinatsiyaning rivojlanganligi, harakatlarning aniqligi va chaqqonligi, diqqat, texnikaga qiziqish
Hunar-texnik ma'lumot talab qiluvchi kasblar	Chilangar, slesar, montajchi, tele-radio vositalar sozlovchisi, tikuvchi-motoristka
O'rta maxsus ta'lim talab qiladigan kasblar	Texnik-texnolog, texnik-quruvchi, texnik-mexanik, texnik-elektrik
Oliy ma'lumot talab qiluvchi kasblar	Muxandis-texnolog, muhanlis-elektrik, quruvchi-muhandis, muhandis-mexanik

Kasb turi	Odam-badiiy obraz
Mehnat predmeti	Badiiy obrazlar, ularning xususiyatlari va elementlari
Mazkur kasb uchun muhim bo'lgan ayrim sifatlar	Ma'lum bir faoliyatga maxsus qobiliyat, hayol, tassurot, obrazli xotira, obrazli tafakkur, estetik did
Hunar-texnik ma'lumot talab qiluvchi kasblar	Graver, arxitektura detallarini yopishtiruvchi

O'rta maxsus ta'lim talab qiladigan kasblar	Bezakchi-pardozchi, musiqachi, tsirk artisti, badiiy havaskorlik jamoalarining boshlig'i
Oliy ma'lumot talab qiluvchi kasblar	Rassom-konstruktor, dekoratorrejissyor, teatrshunos, tanqidchi

Kasb turi	Odam-belgilar tizimi
Mehnat predmeti	Shartli belgilar, raqamlar, kodlar, tabiiy va sun'iy materiallar (formulalar)
Mazkur kasb uchun muhim bo'lgan ayrim sifatlar	Chidam, bardamlik, sabr-toqatlilik, turg'unlik, diqqat, tezkor xotira, idrokning aniqligi, raqamlar, tasvirlar, sxemalar, jadvallar bilan uzoq ishlay bilish
Hunar-texnik ma'lumot talab qiluvchi kasblar	Harf teruvchi, chizmach, EHM operatori, kotibamashinistka, korrektor (tuzatuvchi), telegrafchi
O'rta maxsus ta'lim talab qiladigan kasblar	Iqtisodchi, rejalovchi, texnik muharrir, hisobchi, texnik-dasturchi
Oliy ma'lumot talab qiluvchi kasblar	Muxandis-iqtisodchi, muhandis-matematik, dasturchi, konstruktor

Kasb turi	Odam-tabiati
Mehnat predmeti	Tirik organizmlar, biologik, kimyoviy jarayonlar
Mazkur kasb uchun muhim bo'lgan ayrim sifatlar	Kuzatuvchanlik, qat'iylik, chidam, kuzatishlarni sistemalashtira olish, mehnat natijalari uzoq va ma'lum muddat o'tgandan so'ng ma'lum bo'ladigan sharoitlarda ishlay olish qobiliyati, oldindan ko'ra bilish qobiliyati, barcha jonli narsalarni sevish
Hunar-texnik ma'lumot talab qiluvchi kasblar	Bog'bon, sabzavotkor, chovador, gulchi-bezakchi, arichilik, mirob

O'rta maxsus ta'lim talab qiladigan kasblar	O'rmon-texnik, zootexnik, veterinary, yer o'lchovchi
Oliy ma'lumot talab qiluvchi kasblar	Zoomuxandis, agronom, veterinariya vrachi, zoolog, agrotexnik, kimyogar

Foydalangan manbaalar:

1. "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda qo'llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikasi" , Y.M.Asadov, Sh.Ergashev, Toshkent -2006
2. <http://pkp.r21.spb.ru/professiogram/chelovek-hudozhestvennyy-obraz/modeler-konstruktor/>